

VAKILLIK INSTITUTI VA UNI AMALAGA OSHIRISH

Termiz Davlat Universiteti “Jinoyat huquqi va
Fuqarolik protsessi kafedrası katta o`qituvchisi

Allayarova Muattar Choriyorovna

Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti

2-bosqich talabasi *Qurbonova Sevvara Zayniddin qizi*

Annotatsiya: Hammamizga ma`lumki fuqarolik jamiyatida har kim ham ijtimoiy munosabatlarga kirishib unda o`zining huquq va erkinliklarini amalga oshira olmasligi va bu munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni esa bajara olmasligi mumkin. Bunday holatlarda tegishlicha fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan vakillik institutining ahamiyatini ko`rib borishimiz mumkin bo`ladi. Albatta vakillik instituti ko`plab sohalar kabi muhim va dolzarb mavzu bo`lsada lekin uni tartibga solish va amalga oshirishda jamiyatda bu institutdan foydalanish hali yuksak darajaga chiqib ulguradi. Chunki aynan vakillik instituti fuqarolik huquqining yaxshi o`rganilmagan bo`limlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqola doirasida vakillik instituti va uning amalga oshirilishi, turlari va shakllari hamda xorijiy tajriba borasida so`z boradi.

Kalit so`zlar: vakillik tushunchasi, uning turlari, subyektlari, Rossiya Federatsiyasi qonunchili.

KIRISH

Vakillik - jahonning turli huquq tizimlarida ancha vaqtdan beri qo`llaniladigan amaliyot hisoblanib, uning huquqiy hayotimizdagina emas umuman olganda hayotimizning turli sohalarida qo`llaymiz. Chunki inson har qanday munosabatda ham qatnashgisi kelmay qolishi, yoki u munosabatga kirishish uchun vaqt va sharoitning bo`lmasligi, yoki boshqa obyektiv va subyektiv omillar sabab bo`lishi mumkinligini

inkor eta olmaymiz. Shunday vaziyatlar bo`lganda esa qonunchilikka va jamiyatda o`rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilinishi uchun mamlakatimizda ushbu institut tartibga solingan. *O`zi vakillik nima degan savol ham tug`ilishi tabiiy.* Ushbu tushunchaga qisqacha ta`rif beradigan bo`lsak, O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq:

Vakillik — bu bir shaxsning boshqa shaxs nomidan yuridik harakatlarni bajarishi hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida ushbu institut shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish hamda ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Vakillik quyidagi hollarda o`z ahamiyatini namoyon qiladi:

-jamiyatdagi subyektlarning huquq va majburiyatlarini o`z vaqtida bajarilishiga yordam beradi;

-shaxslarning o`z huquqlarini amalga oshirishlariga ko`maklashadi;

-fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishdan himoya qiladi;

-subyektlar o`rtasidagi huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta`minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, vakillik instituti jamiyat taraqqiyotida o`ziga xos rol o`ynab, qonuniylikni mustahkamlash va adolatni ta`minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo`ladi.

” Vakillik instituti insoniylik, o`zaro ko`mak va fuqarolik munosabatlarida tenglik tamoyillariga asoslanadi. Bu institut fuqarolik, oila, xo`jalik va ma`muriy huquqiy munosabatlarni o`z ichiga olgan murakkab huquqiy tizim sifatida namoyon bo`ladi. Vakolatlar aniq huquqiy hujjatlar va shartnomalar orqali belgilab qo`yiladi. Vakillikning paydo bo`lishi va tugashi esa turli obyektiv va subyektiv yuridik holatlarga bog`liqdir. Shu tariqa, vakillik instituti fuqarolarga huquq va majburiyatlarni amalga oshirishda yuridik ko`mak ko`rsatish uchun asosiy huquqiy vosita bo`lib

xizmat qiladi¹”. Yani vakillik fuqarolik huquqi bilan tartibga solingani bilan faqatgina bu sohada emas fuqarolar muxtoj bo`lgan turli sohalarda qo`llanishi mumkinligi o`z aksini topyapti. “Ishonchnoma, qonun, sud qarori yoki vakil etilgan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat orqali bir shaxs (vakil) boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o`zgartiradi yoki bekor qiladi²”. Fuqarolik kodeksining 129-moddasiga ko`ra, vakillikni amalga oshirish jarayonida vakilga hech qanday yuridik oqibatlar taalluqli bo`lmaydi. Ya`ni, vakil huquq va majburiyatlarga ega bo`lmaydi hamda ulardan kelib chiqadigan javobgarlik ham vakilga yuklatilmaydi. Masalan, agar S. ismli shaxs o`z vakili G. ismli shaxs orqali o`z mol-mulkini H. ismli shaxsga ijaraga bersa, ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar faqat S. va G. ismli shaxslar o`rtasida yuzaga keladi. Ijara haqini olish, uni tasarruf etish yoki mulkdagi kamchiliklarni bartaraf etish kabi majburiyatlar to`g`ridan-to`g`ri S. ismli shaxs zimmasiga yuklanadi. Bu jarayonda vakil H. ismli shaxs hech qanday huquq va majburiyatlarga ega bo`lmaydi va undan kelib chiqadigan javobgarlik ham unga tegishli emas.

Fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham vakillik subyektlari bo`lishga haqlidir. Biroq, muomalaga layoqatli va muomalaga layoqatsiz fuqarolar vakolat beruvchi bo`lishi mumkin bo`lsa-da, faqat muomalaga layoqatli fuqarolargina vakil bo`la oladi. Qonun fuqarolik muomalasi cheklangan toifadagi subyektlariga muayyan bitimlarni tuzish va bajarish bo`yicha boshqa shaxslar nomidan vakil sifatida qatnashishni mutlaqo taqiqlaydi. Jumladan, qonunchilikka muvofiq vasiylarga, homiylarga, ularning turmush o`rtoqlariga va yaqin qarindoshlariga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan hadya shartnomasini tuzish, shuningdek uning nomidan kundalik turmush doirasidan tashqariga chiqadigan bitimlarga rozilik berish taqiqlanadi.

Vakillikning o`ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

¹ Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet

² <https://lex.uz/mact/-111189>

1. Vakillik munosabatlarining subyektlari: vakillik munosabatlarida subyekt sifatida har qanday shaxs qatnashishi mumkin.
2. Tomonlar soni: vakillikdan kelib chiqadigan munosabatlarda uch yoki undan ortiq tomon ishtirok etadi.
3. Insoniylik g'oyalari: vakillik instituti insoniylik, o'zaro yordam va fuqarolik munosabatlarida barchaning teng ishtirokini ta'minlash tamoyillariga asoslanadi.
4. Haq evaziga yoki tekin: vakillik faoliyati haq evaziga yoki tekin amalga oshirilishi mumkin.
5. Huquqiy munosabatlarni qamrab olishi: vakillik fuqarolik, oila, xo'jalik va ma'muriy huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.
6. Vakolatlarning belgilanishi: vakillik instituti doirasidagi vakolatlar huquqiy hujjatlar yoki shartnomalar orqali aniq belgilab beriladi.
7. Vakillikning vujudga kelishi va bekor bo'lishi: vakillikning yuzaga kelishi yoki tugatilishi turli obyektiv va subyektiv yuridik faktlarga bog'liqdir.
8. Yuridik yordamning huquqiy asosi: vakillik instituti shaxslarga fuqarolik huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda yuridik yordam ko'rsatishning huquqiy asosini tashkil etadi.


Bu xususiyatlar vakillik institutining keng ko'lamda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Fuqarolik kodeksiga ko'ra, muomalaga layoqatli va muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakillik qilish quyidagicha farqlanadi:

1. Muomalaga layoqatli shaxslar nomidan vakillik: bunday shaxslar vakillarini o'z ixtiyoriga ko'ra, erkin qaror asosida belgilaydilar.
2. Muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakillik: bu vakillik qonun asosida amalga oshiriladi. Muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakil sifatida ularning ota-

onalari, farzandlikka oluvchilari, vasiylari ishtirok etadi va ularning manfaatlarini himoya qiladi.

Mazkur farqlar vakillik munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilaydi va shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.



Muomala layoqati cheklangan shaxslar uchun esa homiylar tayinlanadi. Agar bir shaxs ikkinchi shaxs nomidan oshkora harakat qilish uchun vakolatsiz bo'lsa yoki vakolatli bo'lsa-da, o'z vakolati doirasidan chiqib ketgan bo'lsa, bunday harakatlar natijasida tuzilgan bitimlar bo'yicha huquq va majburiyatlar nomidan harakat qilgan shaxs nomidan tuzilgan hisoblanmaydi va unga nisbatan huquq va majburiyatlar vujudga keltirmaydi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 182-moddasiga ko'ra bir shaxs (vakil) tomonidan ishonchnomaga, qonun ko'rsatmasiga yoxud vakolat berilgan davlat

organi yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organining hujjatiga asoslangan vakolatga ko'ra boshqa shaxs (vakil) nomidan tuzilgan bitim bevosita vakilning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Rossiya qonunchiligidan farqli ravishda bizning qonunchiligimizda vakillik bo'yicha hujjatni o'zini o'zi boshqarish organlari emas sud organlari beradi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga binoan, boshqalarning manfaatlarini ko'zlab, ammo o'z nomidan harakat qiluvchi shaxslar, boshqa shaxsning tegishli tarzda ifodalangan xohish-irodasini faqat yetkazib beruvchi shaxslar, shuningdek, kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bitimlar bo'yicha muzokaralar olib borish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar vakillar deb hisoblanmaydi.

Bizning qonunchiligimizda esa bunday norma mavjud emas.

Har ikkala davlat qonunchiligiga ko'ra, o'z harakteriga ko'ra faqat shaxsan tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni vakil orqali tuzsha yo'l qo'yilmaydi, shuningdek o'ziga vakolat bergan shaxs nomidan vakil bir vaqtda o'ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakil bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas. Biroq tijorat vakilligi bo'lgan hollar bundan mustasno hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vakillik fuqarolik huquqidagi eng muhim va hozirgi kunda uni amalyotda qo'llashda alohida e'tibor qaratishga ehtiyoj sezayotgan sohalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu sohani yanada rivojlantirish uchun birgina qonunchilik tizimini takomillashtirish emas balki amalyotda bu sohada yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilib, ularga qarshi samarali yechim topish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1) O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi umumiy qisim.
- 2) V.R. Topildiyev Fuqarolik huquqi darslik – Toshkent – 2022.
- 3) Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet
- 4) Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi.
- 5) WWW.Lex.uz – sayti.